



## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI YONDASHUVLAR

**Komolov Husniddin Muhiddinovich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
"Axborot texnologiyalari" kafedrası katta o'qituvchisi  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10418218>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> December 2023  
Accepted: 20<sup>th</sup> December 2023  
Online: 21<sup>th</sup> December 2023

### KEY WORDS

*Kompetentsiya, kasbiy kompetentlik, raqamli ta'lim, integratsiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda raqamli ta'lim sharoiti bilan integratsiyalashuvi o'rganilgan.*

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining tanlangan yo'nalishlarda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish, bizning fikrimizcha, kelajakdagi kasbiy faoliyatning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari haqidagi g'oyalar asosida qurilishi kerak, bu bo'lajak mutaxassisni turli sohalarida harakat qilishga tayyorlashga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida kasbiy yetuklikka erishishida, talabalarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning dolzarbligi bilan kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu amaliyotni yo'nalishlarga integratsiyalashda raqamli sharoitga moslashuvchan pedagogik yondashuvlarni tanlash lozim. Bizning fikrimizcha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z kasbiy faoliyatida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan o'qitishning asosiy yondashuvlari o'quvchilarni o'qitishni ta'lim faoliyati va aniq muammolarni hal qilishni hisobga olgan kasbiy faoliyatda imkon qadar yaqinlashishiga imkon beradigan pedagogik yondashuvlar bo'lishi kerak. Raqamli sharoitda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi yondashuvlarga asos sifatida, quyidagi yondashuvlarni tanladik:

- muayyan kasbiy muammolarni hal qilish bo'yicha o'quv faoliyati va kasbiy faoliyatining maksimal darajada yaqinlashuvida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy kompetensiyaviy yondashuv;

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv, bunda kasbiy faoliyat tarkibida ko'rsatilgan parametrlar emas, balki talabalarning bilim va ko'nikmalari, samarali faoliyat usullarini olishda kutilgan natijalar ustuvor hisoblanadi, soatlar hajmi, o'qitish jarayoni va natijada olingan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati rivojlanadi.



S.A.Zaytsevaning tadqiqot ishlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida AKT kompetensiyasini shakllantirishning uchta darajasida ochib beradi: umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy, axborot ta'limining maxsus fanlari va kasbiy sikl sub'ektlarining fanlararo integratsiyasida namoyon bo'ladi deb ta'kidlangan[1].

A.V.Molokovaning tadqiqot ishlari boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanishga tayyorlashni takomillashtirish muammosini hal qilishga bag'ishlangan[2].

Bizning tadqiqotimizda biz kasbiy pedagogik ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni maqsadlarni belgilash, mazmunini tanlash, yuqori darajani kafolatlaydigan asosiy, umumiy va maxsus pedagogik faoliyat turlarini aniqlashda o'qituvchilar tayyorlash jarayonini tashkiliy va texnologik ta'minlashning yagona tizimi sifatida tushunamiz va o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati samaradorligi bilan izohlanadi.

O'qitishning u yoki bu yondashuvini amalga oshirish uchun samarali usullarni tanlashni ta'minlash kerak. O'qitish usullarini tanlash muammosini hal etish imkoniyatlari va bosqichlari V.I.Zageyazinskiyning tadqiqot ishlarida quyidagicha ifodalangan:

1-bosqich - kurs, bo'lim, mavzuni o'rganish maqsadi va umumiy vazifalarini anglash va kasbiy faoliyatda qo'llash;

2-bosqich - o'rganilayotgan materialning tabiati va imkoniyatlarini tahlil qilish. Odatda, ma'lum bir materialni o'rganish uchun mos bo'lgan bir nechta mumkin bo'lgan o'qitish usullari tanlanadi. Kasbiy faoliyatda o'qitish usullari, va pedagogik yondashuvlar o'qituvchining maqsadlari, mavjud vaqti, mablag'lari, jihozlari, imkoniyatlari va afzalliklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi [3].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini rivojlantirish jarayonida asosiy o'qitish usullarini tanlashda loyihaviy yondashuv to'g'ri tanlangan usul hisoblanadi. Keling, tanlovimizni tushuntirib beraylik. Hozirgi vaqtda loyihaviy yondashuv asosida o'qitish imkoniyatlari talabalarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullaridan biriga aylandi. Loyihaviy yondashuv haqida E.S.Polatning tadqiqot ishlarida quyidagicha tavsiflangan, loyihaviy yondashuvda muammoni bartaraf etishda kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan hamda didaktik vositalardan foydalanib maqsadga erishishda, natijada u yoki bu tarzda rasmiylashtirishda aniq amaliy natijaga olib kelinishi lozim [4].

Loyihaviy yondashuvning o'ziga xosligi quyidagicha ifodalangan:

a) uni hal qilish uchun yaxlit bilim va tadqiqotni talab qiladigan muhim muammo hamda topshiriqning mavjudligi;

b) kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, kognitiv ahamiyati;

c) talabalarning mustaqil (yakka, juftlik, guruh) faoliyati;

d) loyiha mazmunini tizimlashtirish (bosqichma-bosqich natijalarni ko'rsatish).

Loyihaviy yondashuv bilan barcha trening ishtirokchilarining ma'lum vaqt davomida o'quv mahsulotini olish bo'yicha faoliyatining yaxlit xarakterini va olingan nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, uni kasbiy faoliyatida qo'llashga qaratilganligi bilan baholanadi.

V.V. Laptevning fikriga ko'ra, to'g'ri tanlangan vazifali yondashuvlarning mohiyati quyidagilardan iborat:



- o'qituvchining faoliyati vazifalar tizimini qurishdan iborat bo'lib, har bir topshiriqning bajarilishi oldingi vazifani bajarishga asoslanadi va tuzilgan muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan;

- o'quvchilar faoliyati o'qituvchi tomonidan shakllantirilgan muayyan muammoli vaziyatni hal qilishdan iborat;

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat - o'qituvchi har bir vazifani shakllantirishda yoki vazifali yondashuv jarayoni o'quvchining faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi [5].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'limdan foydalanishga tayyorligini rivojlantirish jarayonida to'g'ri tanlangan vazifali yondashuvdan foydalanish vazifalarni quyidagi vositalar sifatida ishlatishga imkon beradi:

- nazariy materialni o'zlashtirish: Topshiriq, Nazariy bilim va Vazifa;

- nazariy materialni tasvirlash va mustahkamlash uchun: Nazariy bilim hamda Vazifalarga tayaniladi. Nazariy bilimni egallashda talabalar uchun vazifalarning bajarilishi jarayonida nazariyani yanada rivojlantirish motivi sifatida namoyon bo'lishi bilan ko'nikmalarni kasbiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his - tuyg'usini, hatti - harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi, har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlash, pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

### References:

1. Зайцева С.А. Состояние и перспективы развития ИКТ-компетентности учителя начальных классов // Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 2 – Том II (Психолого-педагогические науки).
2. Молокова А.В. Современные нормативные требования к ИКТ-компетентности педагога и возможности их реализации // Научно-педагогическое обозрение. Pedagogical Review. 2016. 1 (11).
3. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактического исследования. / В.И. Загвязинский. - М.: Педагогика, 1982. - 160 с.
4. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. Пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров / Петров; под ред. Е.С.Полат.- М.: Издательский центр «Академия», 2001, -272 с.
5. Лаптев В.В. Методическая теория обучения информатике. Аспекты фундаментальной подготовки. / В.В. Лаптев, Н.И. Рыжова, М.В. Швецкий. - Спб.: Изд-во С.-Петербур. Ун-та, 2003. - 352 с.